




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



60	Saida NORMAMATOVA, Surxondaryo qipchoq shevalarida chorvachilik oid leksika	703
61	Feruza QOSIMOVA, O‘zbek dialektologiyasida qo‘llanilgan transkripsion belgilar tizimi	707
62	Dilnoza RAIMBERDIYEVA, “Oychinor” dostonining fonetik dialektizmlari tahlili	711
63	Shohida MAMARAJABOVA, Uzun tumani areali bo‘ylab qo‘ng‘irot shevalarining tarqalishi	713
64	Shahzoda MURODOVA, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida boshlanma	717
65	Mohidil RAJAMATOVA, Parkent tumani folklori namunalari tahlili	723
66	Holida HUSANOVA, “Zarbulmasal”dagi maqollar tahlili	726
67	Gulsevar TURSUNOVA, Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qo‘shgan hissasi	730
68	Malika AMINJONOVA, Namangan o‘zbek shevalarining o‘zbek adabiy tiliga munosabati	735
69	Behruz BOBOYOROV, O‘zbek tilida blingvizm hodisasi va uning o‘rganilish talqinlari	739
70	Nazokat QODIROVA, Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari leksikasining tematik guruhlar	745
71	Shodiya QOSIMOVA, Muyassar XOLOVA, O‘zbek milliy korpusiga yozma matnlarni kiritishning metodologiyasi: tematik va metama’lumotli (Mingbuloq tumani misolida)	748
72	Muborak XAYDAROVA, Muyassar XOLOVA, Dialekt va nutq madaniyati	751
73	Muxlisa KUCHIMOVA, Mifologiyada hayvon obrazlarining badiiy ifodasi	748
74	Marjona TOG‘AY, “Qoraqayun” romanida qo‘llangan leksik dialektizmlar tahlili	752

**O'ZBEK TILIDA BLINGVIZM HODISASI VA UNING O'RGANILISH
TALQINLARI**
**THE PHENOMENON OF BLINGVISM IN THE UZBEK LANGUAGE
AND ITS STUDY INTERPRETATIONS**

Behruz BOBOYOROV,

Denov tumani 81-maktab o'qituvchisi,

Denov tadbirkorlik pedagogika instituti magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/ZDJU1733

Annotation. *The work analyzes the forms of manifestation of blingism in Uzbek linguistics (mainly Uzbek-Russian, Uzbek-Tajik, Uzbek-Kazakh, Uzbek-Kyrgyz, Uzbek-Turkmen), language interference, as well as the emergence and prospects of bilingualism in the Uzbek language, and research conducted on these issues. The interpretations of Uzbek scholars in their research from the Soviet era to the present are compared.*

Key words: *blingvism, Uzbek language, bilingualism, code switching, sociolinguistics, psycholinguistics, language interference, Uzbek linguistics.*

O'zbek va tojiklar asrlar davomida bir geografik sharoitda hayot kechirib kelganliklari sababli hamma vaqt bir-birlari bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo'ldilar. Bu narsa ularning urf-odatlariga, xo'jalik hayotlariga, psixik holatlariga va, hatto, tillariga katta ta'sir ko'rsatdi. Natijada ikki xil xalq va ikki xil oiladagi til (o'zbek tili turkiy tillar oilasiga, tojik tili eron tillar oilasiga mansubdir) egasi bo'lgan o'zbek va tojik xalqining tilida bir-biriga ta'sir kuchaydi, ikki tillilik vujudga keldi.

O'zbek va tojik xalqlari O'rta Osiyoning eng qadimgi xalqlari sanaladilar. Bu ikki xalqning uzoq o'tmish tarixi O'rta Osiyodagi eng qadimgi davlatlar hisoblangan Sug'd, Baktriya, Farg'ona, Shosh tarixi bilan bevosita bog'langandir.

Tojik xalqining tarixiy shakllanishida o'zbek xalqining ota-bobolari katta hissa qo'shganlaridek, o'zbek xalqining shakllanishida ham tojik xalqining ota-bobolari katta hissa qo'shganlar. Tarixiy faktlar shuni ko'rsatadiki, Tojikiston SSR ning janubiy rayonlarida yashayotgan hozirgi tojикlarning tarixiy etnik sostavi faqat sug'dlardan iborat bo'lmay, balki baktri-toxar, turklardan iboratdir. 2). Aksincha, Marg'ilon shahrida yashovchi hozirgi o'zbeklarning XV asr va undan oldingi ota-bobolari tojik bo'lganlar. 3)Shuni aytish kerakki, tojik va o'zbek xalqining shakllanish tarixi (shuningdek boshqa xalqlarning ham) to'g'ridan to'g'ri, hech qanday o'zgarishsiz, osongina sodir bo'lgan emas.

Amudaryo va Sirdaryo bo'ylaridagi butun tarixiy protsess ikki madaniy xalqning o'zbek va tojik xalqining shakllanish tarixi bilan bog'langandir. Yaqin yillargacha tarixchilar o'rtasida o'zbek xalqi kelgindi xalq, hozirgi O'zbekiston territoriyasiga XV asr oxirida kelganlar degan noto'g'ri qarashlar hukm surib keldi. Bu xil fikr beruvchilar xalqning shakllanish tarixi bilan shu xalqning nom olish tarixini bir deb tushunadilar. Aslida esa, O'zbekiston territoriyasiga ko'chmanchi o'zbeklar kelganga qadar (XV asr oxirigacha) bu yerda (O'zbekistonda) hozirgi o'zbek xalqining ota-bobolari hayot kechirib

kelganlar. Shimoldan bosib kelgan ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari keyinchalik o‘troqlashdilar va yerli xalq (o‘zbek xalqining ota–bobolari) – o‘rtasida singib ketdilar).

Demak:

a) hozirgi o‘zbek xalqi kelgindi, bu xalq XV asr oxirida hozirgi O‘zbekiston territoriyasiga shimol tomonidan kirib keldi deyish – soxta fikrdir, b) hamma xalqlarda (shu jumladan o‘zbek va tojik xalqlarida ham) xalqning o‘z tarixi va til tarixi shu xalqning nom olish tarixidan ancha keksadir. Xalqning o‘zi va tili avval paydo bo‘ladi, keyinchalik atrofda muhit, biror tarixiy zaruriyat shu xalqqa nom beradi.

Akademik V. V. Bartold «o‘zbek» so‘zining chiqib kelish tarixini o‘zbek – ko‘chmanchi qabilalarining Turkistonga (hozirgi O‘zbekiston territoriyasiga) kelishlari bilan bog‘langan masala sifatida qaraydi. Bolshaya Sovetskaya Ensiklopediyaning 1947 yilgi nashri ham «o‘zbek» so‘zining tarixini Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (1312–1342) nomi bilan bog‘laydi. Shuningdek, V. I. Masalskiy ham «o‘zbek» so‘zini etnik termin sifatida emas, siyosiy termin sifatida tushunadi. Masalaning bu yo‘sinda hal qilinishi tarixchi prof. A. A. Semenovning fikrlarida⁴⁾ ham, «O‘zbekiston xalqlari tarixi»da ham e‘tirozga uchraydi. Demak, «o‘zbek» so‘zining chiqib kelish tarixi masalasi tegishli adabiyotlarda hali o‘quvchilarni to‘la qondiradigan darajada yoritilgan emas. Uzoq o‘tmishdan beri davom etib kelayotgan xalq traditsiyasi shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina toponomik otlar, turli geografik terminlarning ko‘pchiligi birorga xalq sarkardasi, nomdori, kashfiyotchisi nomiga nisbatan ham qo‘llanilib kelingan. Bu jihatdan qaraganda, bizningcha ham, «o‘zbek» so‘zining chiqib kelish tarixi Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon nomi bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. I. I. Zarubinning bergan ma‘lumotlariga qaraganda turk qabilalari o‘troqlashgan, musulmon madaniyatiga bo‘ysungan yoki musulmon madaniyatini o‘zlashtirgan kishini (so‘zlashuv tilidan qat’iy nazar) «tojik» nomi bilan yuritganlar. Bunday tushuncha keyinchalik Zakavkaz armanlari o‘rtasida ham mavjud bo‘lgan. Ular (armanlar) Armanistonda o‘troq bo‘lib qolgan usmonli turklarni «tojik» nomi bilan yuritganlar.

“Tojik”termini haqida I. I. Zarubin tomonidan keltirilgan fikrlarga nisbatan akademik V. V. Bartoldning shu haqdagi fikrlari, bizningcha, konketretroq va to‘g‘ridir. V. V. Bartoldning fikricha, III asrlarda beduin qabila soyuzi sostavida tay qabilasi ham bor bo‘lgan. Keyinchalik tay qabilasi shuhrat topganligi sababli butun beduin xalqi ham tay nomi bilan ataganlar. Tay qabilasi yashagan Yefrat daryosining g‘arbiy qismi territoriya jihatdan Eron davlatiga qarashli bo‘lgan. Mana shu tay qabilasining nomidan forslar va armanlar o‘rtasida «tojik» so‘zi chiqib kelgan. Turklarda esa bu so‘zning formasi «tedjik» shakliga ko‘chgandir. Musulmonlar zamonida (O‘rta Osiyoni islomlashtirish davrida) «tojik» so‘zining formasi «tazik» (ba‘zi manbalarda hatto «tazi») shaklida uchraydi [Turdialiyev 2025].

XI asrlarda – Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Balasag‘un asarlarida hozirgi «tojik» so‘zi «tejik» shaklida qo‘llanilgan va fors ma‘nosida ishlatilgan. Shundan bo‘lsa kerak, eronliklar turklar bilan urushgan vaqtda ular – eronliklar o‘zlarini turklarga «Biz tojiklarimiz», – deb tanitganlar.

Demak, hozirgi «tojik» terminining chiqib kelish tarixi tay qabilasining nomi bilan bog‘langan bo‘lib, turli davrlarda va turli xalqlarda turlicha (tojik, tedjik, tazik, tjik formasida) qo‘llanilgan.

O‘zbek va tojik tillarining (shuningdek, boshqa har qanday tilning ham–) o‘tmish, hozirgi va kelajak taqdiri ustida fikr berganda til egasi bo‘lgan xalq tarixi bilan bog‘liq

holda tekshirish zarurligini nazarda tutish kerak. Bu narsa bayon qilinadigan fikrlarning konkret, to'g'ri bo'lishini ta'minlaydi.

Buyuk shoir va lingvist Alisher Navoiy bundan besh asr oldin turkiy tilni (eski o'zbek tilini) tahqirlovchi kishilarga nisbatan qattiq norozilik bildirdi va o'z fikrlarining isboti uchun o'zining mashhur lingvistik asari bo'lgan «Muhokamatul lug'atayn»ni maydonga chiqardi. Alisher Navoiy zamonida o'zbek tilini kamsitish, bu til oldida fors tilini ko'klarga ko'tarib maqtash odat tusiga kirib qolgan ediki Alisher Navoiy bunga haqli ravishda tamomila norozi edi. Alisher Navoiy o'zbek tilini boshqa tillar qatori (shu jumladan fors tili qatori)da ko'rdi, o'zbek tilining jozibali, boy til ekanligini amalda ko'rsatdi. Shu bilan u (Navoiy) fors tilini kamsitmoqchi emas edi. Aksincha, fors tili bilan o'zbek tili teng huquqli til ekanligini isbotladi. Shunga qaramay, keyingi vaqtlargacha tilshunoslik sohasida O'rta Osiyo xalqlarining tillari, shu jumladan o'zbek tilidagi fors (aniqrog'i tojik) so'zlarining mavjudligi bu ikki xalqning tarixi (iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari) zaminida hal qilinmay, balki o'zbek tili taraqqiyotining istiqbolini fors (tojik) tili ixtiyoriga topshirilib qo'yildi. Natijada o'zbek tilining taraqqiyoti «eronlashish teoriyasi» (teorii iranizatsii) ostida qolib keldi).

Y. D. Polivanov mana shu «eronlashish teoriyasi»ga asoslanib, Samarqand, Buxoro va Xo'jand o'zbek dialektlarini maksimal eronlashgan gruppaga, Toshkent, Marg'ilon, Qo'qon Andijon; Sharxon o'zbek dialektlarini o'rta darajada eronlashgan gruppaga, Andijon oblastidagi Saroy qishlog'i shevasini esa minimal eronlashgan gruppaga kirgizadi [Polivanov].

O'zbek va tojik tillari azaldan o'zbek va tojik xalqlarining mustaqil holdagi o'zaro so'zlashuv tillari edi va bundan keyin ham juda uzoq vaqtlargacha shunday bo'lib qoladi. O'zbek tili ham, tojik tili ham (boshqa tillar kabi) mustaqil til sifatida o'z taraqqiyot tarixi va kelajak istiqbollarga egadirlar. Asrlar davomida birgalashib hayot kechirgan, lozim bo'lganda birlashib o'z dushmanlariga qarshi mardonavor kurashib kelgan o'zbek va tojik xalqlari uzoq o'tmishdan beri bir-birlari bilan aralashgan holda yashab keladilar.

Tarix sahifalarida, bizningcha, tamomila ikki sistemadagi (o'zbek tili agglutinatив sistemadagi, tojik tili flektiv sistemadagi) til egasi bo'lgan o'zbek va tojik xalqlaridagi urf-odat, madaniyat, psixik holat jihatidan birlashib ketishdek faktlar va nutqdagi ikki tillilik xususiyatlari juda kam uchraydigan hodisa bo'lsa kerak. Fikrimizning dalili uchun quyidagi ikki xil faktga murojaat qilaylik.

Ma'lumki, o'zbek va turk xalqlari til jihatidan bir oiladagi xalqlar sanaladilar. Ammo o'zbek xalqi bilan turk xalqi o'rtasidagi hayotiy o'xshash momentlar o'zbek va tojik xalqi o'rtasidagi hayotiy o'xshash momentlarga nisbatan anchagina zaifdir. Shuningdek, tojik xalqi bilan fors xalqi o'rtasidagi urf-odat, psixik holat va madaniyat jihatidan bo'ladigan yaqinlik o'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi shu jihatdan bo'ladigan yaqinlikdan ancha uzoqdir. Demak, Farg'ona vodiysidagi o'zbek va tojik xalqlarining urf-odati, psixik holati, madaniyati bir-biriga juda yaqindir. Ular o'rtasidagi farq faqat birgina tildadir.

O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi bu xil o'xshashlik, aralashish masalalarining ildizi juda chuqurdir. Faktlar shunga guvohlik beradiki, o'zbek va tojik xalqlarining urf-odatlari, psixik holatlari va madaniyatlari va hatto, tillaridagi aralashish hodisasi eramizning VI asridanoq boshlangan. Prof. A.K. Borovkovning keltirgan dalillari bo'yicha o'zbek va tojik tillaridagi aralashishlik hodisasi – ikki tillilik hodisasi M. Koshg'ariy davrida ham ancha kuchli bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy bergan ma'lumotlarga ko'ra, o'sha davrda (XI asrda) Sharqiy Turkistonda, Chu va Talas vodiylarida, Balasag'un, Taraz

(hozirgi Jambul shahri) va Isfijob (Sayram) shaharlaridagi aholi o'zbekcha va sug'dcha (tojikcha), so'zlashishni bilganlar. Temuriylar zamonini aks ettiruvchi «Tafsir» asarining tarjimoni tilida quyidagi holatni uchratish mumkin:» 2 bilalni menka bergil, aytdi–niz xoham, guft, chil rufiya doram digar yana berayin tedi³) (ma'nosi: Bilolni menga bergin (sotgin), – aytdi u, –yana istayman (xohlayman), – dedi (savdogar), – qirq rufiyam bor, boshqa yana berayin, – dedi) [Yusupov 1957].

O'zbek va tojik xalqlari, ularning tillari o'rtasidagi o'zaro aloqa masalasida o'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiy tomonidan berilgan fikrlar va keltirilgan dalillar alohida ahamiyatga egadir. Bu ikki toifaning yigiti va qarisi, balki ulug'din kichik – barcha orasida ixtilot alos – saviydur. Har miqdorki, bu birining u biri birla omizish va guftu guzori bor, ul birining bu biri birla hamoncha takallum va guftori bor. (Ma'nosi: bu ikki xalqning yigiti va qarisi, balki kattadan kichigi – barchasi orasida aralashish babbarobardir. Bu biri bilan u biri o'rtasida har qancha aralashish, o'zaro so'zlashish bo'lsa, u birining bu biri bilan o'shanga anglashish va so'zlashishi bor). Ikki tilda she'r yozish texnikasini Alisher Navoiy ham juda yaxshi egallagan. Alisher Navoiy ikki tilda go'zal she'rlar yozgani uchun «Zullisonayn» (ikki tilli egasi) nomi bilan shuhrat qozongan. O'zbek tilida yozgan she'rlariga «Navoiy», tojik tilida yozgan she'rlariga esa «Foniy» deb taxallus qo'yar edi. Demokrat shoir Gulxaniy o'zbekcha va tojikcha she'rlar yozishning mohir ustasi edi. Shuning uchun Gulxaniy haqida so'z borganda zamondoshlari «...takallum qilur turki va forsi» jumlasini ishlatar edilar.

Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Durbek, S. Ayniy, Hamza Hakimzoda, F. G'ulom, Yashin, Uyg'un va boshqa ko'pgina shoirlar ham o'z she'rlarini o'zbek va tojik tili so'zlari bilan juda o'rinli bezatanlar. Ammo imkoniyatimizga qarab, ulardan fakt keltirmadik. Faktlar shuni tasdiqlaydiki, xalqlar o'rtasidagi territoriya yaqinligi, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar shu xalqlar tiliga sistemali ravishda juda ko'p sonli so'zlarni olib o'tib turadi. Bu masalaning ildizi, avvalo, xalq tilida ixchamlik, osonlik va qulaylikka qarab intilishidadir. Fikrimizning dalili uchun xitoy tili bilan uyg'ur tili, o'zbek tili bilan tojik tilidan birnecha misollar keltiraylik [Yusupov 1957].

1. Uyg'urlar (uyg'ur tili turk tili oilasiga kiradi) xitoy tilidan (xitoy tili amorf tillar sistemasiga kiradi):

a) Fandzi–uy so'zini olganda, uni (shu so'zni) o'z talaffuzlariga moslab qo'llaganlar.

Natijada «Ts» ni uyg'urcha «z» bilan almashtirganlar, fandzi–pangza–uy;

b). Shuningdek, xitoycha–tszi–xo'roz so'zidagi «tsz» ni uyg'urcha «j» bilan almashtirganlar – tszi – «ji». v). xitoy tilidagi «chj»ni birgina «j» bilan berganlar. Xitoycha «shuchjan» – boshliq (nachalnik) so'zini (shujan) formasida qo'llaganlar v. b.).

2. O'zbek xalqi tojik tilidan bir qator so'zlarni olib ishlatganda o'zbek tilida qulaylik, ma'no boyligini oshirish va shu kabi hollarni nazarda tutgandir.

a) «Boloxona» so'zi o'zbek tilida ham, tojik tilida ham, juda ko'p qo'llaniladi. Ammo bu so'z aslida tojik tilining mahsuli bo'lib, «bolo» – yuqori, baland, tepa, ust ma'nosini ifoda etadi. Demak, o'zbek xalqi uchun (o'zbek tili uchun) «tepa uy», yuqori uy, baland uy, ustki uy – deyishdan ko'ra «boloxona» so'zini ishlatish qulaylik, ma'noda aniqlik tug'diradi;

b). Shuningdek, tojik tilidan o'tgan «chorva» so'zi aslida «chor» (chahor – to'rt; – po) poyi–oyoq so'zlaridan olingan bo'lib, to'rt oyoq (to'rt oyoqlilar) ma'nosida ishlatiladi. Ko'rinib turibdiki, bu qo'shma so'zni xalq tiliga, talaffuziga, didiga moslab qo'llaydi. Bu narsa esa o'zbek va tojik adabiy tiliga ham xalq qo'llaganday–chorva formasida ishlatiladi

va shu kabilar. Tojik adabiy tilida (shuningdek Farg'ona rayon tojiklari tilida ham) tayin, yo'rg'a, buqri qiliq kabi juda ko'p so'zlar uchraydiki, bu xil so'zlar tojik tili uchun (o'zbek tilidagi kabi) zaruriy so'zlar sanaladilar).

O'zbek va tojik tillarining tekshirish tarixi O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilganidan keyin boshlangandir. Bu davrdagi tekshirish ishlari va til faktlarini o'rganish masalalari o'sha davr uchun katta ahamiyatga ega edi. Masalan, Farg'ona vodiysini aylanib chiqqan eru-xotin V. Nalivkin va M. Nalivkinalar o'z taassurotlarini bayon qilgan asarlarida) yerli xalqlarning tillarini tekshirish bilan birga, ularning urf-odatlarini, madaniyatlarini va, hatto, iste'mol qiladigan ovqat turlarini va shunga o'xshash masalalarni o'rganishni tekshirishning obyekti qilib oladilar. V. Nalivkin va V. Nalivkinalar tomonidan maydonga chiqarilgan bu asarning qimmat shundaki, mazkur asarda Farg'ona vodiysidagi o'zbek va tojik xalqlarining urf-odatlarini, psixik holatlari va madaniyatlaridagi birlik (o'xshashlik) juda to'g'ri bayon qilingandir. Boshqa tillarni ham, tekshirish va o'rganish masalasi hech qachon Sovet davridagidek keng tarmoq yoymagan va ko'p mahsul bermagan edi. Sovet tuzumi tillarni tekshirish va o'rganish masalasida lingvistlarimiz oldiga juda keng, yorqin yo'l ochib berdi, lingvistlar zimmasiga mas'uliyatli, ammo juda sharafliligi vazifa yukladi [Nalivkin, Nalivkin].

O'z tekshirishlarini o'zbek va tojik tillarini tekshirish va o'rganishga bag'ishlangan I. I. Zarubin o'z asarida) o'zbek va tojik xalqlarining birgalashib hayot kechirishlari natijasida ularning tillaridagi aralashish masalasiga to'g'ri baho beradi, o'zbek va tojik tillaridagi aralashish masalasini bu ikki xalqning uzoq yillar davomida olib borgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarining natijasi deb, biladi. Shu bilan birga, avtor, ilgari traditsiyaga asoslangan holda bo'lsa kerak, tojik tilining taraqqiyotida turklashish, o'zbek tili taraqqiyotida eronlashish «teoriyasi»ni ko'radi. I. I. Zarubin o'zbek va tojik tillari masalasida nazariy fikrlar berish bilan birga, ko'proq tojiklarning yashash punktlari va ularning soni haqidagi statistik masalalar ustida ma'lumot berish bilan shug'ullanadi [Zarubin].

O'zbek va tojik tilshunosligi, ayniqsa, tojik tilshunosligi sohasida unumli ish olib borgan M. S. Andreyev tojik tilini ikki katta gruppalariga bo'lib tekshiradi:

1. Buxoro–Samarqand–Farg'ona gruppasi. Bu gruppaning o'ziga xos xususiyati:
 - a) izofatli aniqlovchining ikki xil qo'llanilishi – bachaya modarash, modari bacha;
 - b) kishilik olmoshining III shaxs birlik formasi uchun «u, vay» so'zlaridan foydalanishi;
2. Janubiy gruppada esa faqat: a) izofatli aniqlovchining bir formasi–modori bacha;
- b) III shaxs kishilik olmoshi uchun «u»ni qo'llash bilan farq qilganligini ko'rsatadi. Ba'zi bir kishilar qatori, M. S. Andreyevda ham tojik tilining shimoliy dialektida (Koson) turklashish ko'rinadi) [Yususov 1957].

Shunga qaramay M. S. Andreyev olib borgan tekshirish ishlari lingvistika olamida juda katta o'rin tutadi.

O'zbek va tojik tillari ularning taraqqiyoti masalasidagi M. Stavrulli; Y. D. Polivanovlarning bergan fikrlari bir tomonlamalik xarakterga egadir. M. Stavrulli tojik tilining shimoliy dialekti «turklashish teoriyasi» ostida «rivojlanadi»), degan fikr tarafdori bo'lsa, Y. D. Polivanov o'zbek dialektlarining maksimal, o'rtacha, minimal – «eronlashish» haqida gapiradi. V. V. Reshetov o'z asarlarida o'zbek va tojik tillarining aralashishi va o'zaro aloqasi masalasini tekshirish va o'rganish vaqtida o'zbek tilining shakllanishi va taraqqiyotida tojik tili, tojik tilining shakllanishi va taraqqiyotida o'zbek tilining roli katta ekanligini ko'rsatib o'tadi. Bu hamkorlik o'zbek va tojik xalqlarining

tillarida, tilning lug'at sostavi va grammatik qurilishida o'z aksini topgandir [Решетов 1952; 104].

Bu sohada professor A. K. Borovkovning ikki tillilik va o'zbek hamda tojik tillarining o'zaro ta'siri masalasiga bag'ishlangan asari) ham nazariy, ham praktik jihatdan juda qimmatli asardir. V. S. Rastorguyeva tojik tilining shimoliy dialektlari–Shaydon–Asht–Chust–Kosonga bag'ishlangan asarida) juda ko'p nazariy, praktik dalillar keltirib, o'zbek va tojik tillarining aralashishi masalasi ustida juda ko'p nazariy fikrlarni bayon qiladi. Qisqasi, o'zbek va tojik tillarining aralashishi va o'zaro aloqasi o'zbek xalqi bilan tojik xalqining tarixiy hamkorligi zaminida maydonga keldi [Borovkov, Rastorguyeva].

O'zbek va tojik tillarining aralashishi masalasi ustida shu kungacha berilgan fikrlarning obyekt sifatida ko'proq Buxoro, Samarqand, Tojikistonning markaziy va janubiy rayonlaridagi tojiklar, shuningdek Farg'ona vodiysining shimolidagi Chust, Kosonsoy, Asht, Shaydon dialektlari xizmat qilib keldi. Ammo Farg'ona oblastining Kattaxona, Oqtom, Damko'l, Avval, Log'on, Qo'chqorchi (Farg'ona), Sufon, Arsif, Volik, Qalacha (Quvasoy) va shu kabi qishloqlarda yashovchi tojiklarning tili haqida lingvistik adabiyotlarning birortasida fikr yuritilgan emas. Vaholanki, Farg'ona shahrining g'arbiy–janubiy, janubiy va sharqiy janubida¹⁾ yashovchi tojiklarning til xususiyatlari tojik tilining boshqa dialektlaridan kattagina farq qiladi. Farg'ona tojik dialekti umum tojik tilining janubiy dialektiga mansubdir. Ammo janubiy gruppalariga xos ayrim xususiyatlar Farg'ona tojiklari tilida uchramaydi. Samarqand, Buxoro tojiklari tilida o'rin kelishigining grammatik funksiyasi ba (va) –ba xona (xonava) bajarsa, Farg'ona tojiklarida ba (va) ning funksiyasi in da (n da) bajaradi (maktab–in–da, xuna–n–da – maktabda, uyda). Shunga qaramay Farg'ona tojiklari dialekti janubiy gruppaga (Samarqand Buxoro) dan ham, shimoliy gruppaga (Asht, Chust, Koson) dan ham, hatto territoriya jihatidan juda yaqin bo'lgan Rishton, So'x, Uchqo'rg'on tojik dialektidan ham farq qiladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shu ko'rsatadiki, O'zbekiston hududida qadimdan bilingvizm mavjud bo'lgan va bugungi kunda ham davom etib kelyapti. Surxondaryo viloyati arealida ham Sariosiyo, Denov, Uzun, Boysun tumanlari bilingvizm ya'ni ikki tillilik (O'zbek-tojik tili) rivojlangan kuchli blingvizga uchragan areal hisoblansa qolgan hududlar kuchsiz blingvizm hududlar hisoblanadi. Arealda joylashgan Oltinsoy tumani va Termiz shahri esa nisbatan o'rta blingvizm ta'siriga uchragan hududlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent, 2023. – b. 176.
2. Поливанов Е.Д. Материалы по грамматике узбекского языка. – Т., 1934, стр-34.
3. Боровков А.К. По поводу «иранизации» узбекского языка. Известия АН Узбекской ССР, – Т., 1956, – №8, стр-79-92.
4. Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Т., 1974.
5. Гулямов Х. Ўзбекско-таджикские языковые связи. – Т., 1983.
6. Раҳмонбердиев К. Ўзбек тили контактлари. – Т., 1989.
7. Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Т., 1974. – б. 4
8. Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши. НДА. – Тошкент, 2007.
9. Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро алоқаси // Илмий асарлар. – Ф., 1957.
10. Turdaliyev A. Denov shevasini areal o'rganish va til korpusiga joylashtirish. – Toshkent, 2025. – b. 136.